

LİNGVISTİK KOMPETENSIYA – ONA TİLİ FANİNING SIFAT-SAMARADORLIK GAROVİ

Sirojiddinova Maftuna Qosimjon qizi

Namangan davlat universiteti

Ta'lim va tarbiya nazariyasi fakulteti

Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 1-kurs magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6281045>

Annotatsiya: Ushbu maqolada umumiy o'rta ta'limning boshlang'ich sinflarida ona tili fanini kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etishning ahamiyati va dars samaradorligini oshirish, o'qituvchilarga boshlang'ich ona tili ta'limidan yangi tahrirdagi DTS asosida me'yoriy-majburiy talablarni o'quvchilar ongiga singdirish yo'llari haqida bilim beradi.

Kalit so'zlar: Ona tili, sinf, o'qitish, boshlang'ich sinf, kompetensiya, ko'nikma, lingvistik kompetensiya, zamonaviy ta'lim, mustaqil fikrlash.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev deydilarki: “**“Oqqan daryo – oqaveradi”**, deydi dono xalqimiz. Bugun buyuk ajdodlarimizning bebaho merosiga tayanib, yangi Renessans poydevorini yaratish uchun bizda barcha imkoniyatlar mavjud, deyishga to'la asoslarimiz bor. Hamma gap ana shu imkoniyatlardan qay darajada oqilona foydalana olishimizga bog'liq”.

Shunday imkoniyatlardan biri ta'lim – tarbiya olishga yaratilgan keng ko'lamli imkoniyatlar hisoblanadi. Bugungi kunda ta'limga e'tibor juda ham yuqori darajada desam mubolag'a bo'lmaydi va shunga munosib tarzda pedagoglarga talablar ham kuchaytirildi. Shu nuqtayi nazardan Davlat ta'lim standartining yangi tahriri ham buning yaqqol misoli. Qabul qilingan mazkur DTSning e'tiborli tarafi shundaki, o'quvchilarda o'zlashtirilgan bilim, ko'nikma va malakalarni amaliyotda qo'llay olish, tayanch va fanga oid kompetensiyalarga ega bo'lish jihatlarini shakllantirish va rivojlantirish alohida inobatga olingan. Kommunikativ, axborotlar bilan ishlash, o'zini o'zi rivojlantirish, ijtimoiy faol fuqarolik, milliy va umummadaniy, matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish hamda foydalanish kabi tayanch kompetensiyalarning o'quvchilarda shakllantirilishi bitiruvchilarning aqlan va ruhan barkamol topishiga, kelajak hayotda dadil va mustahkam qadam tashlashiga zamin hozirlaydi.

Avval “kompetensiya” so'ziga to'xtalsak, kompetensiya – bilim, ko'nikma va malakalarni hayotda qo'llash ko'nikmasidir. Zamonaviy ta'limdagi kompetensiyaga asoslangan yondashuv - olingan bilimlarni qo'llash qobiliyatiga e'tiborni qaratish usuli. Ta'limning maqsadlari maktab o'quvchilarining yangi imkoniyatlarini aks ettiradigan, ularning shaxsiy o'sishini aks ettiradigan maxsus so'zlar bilan tavsiflanadi. Shakllangan asosiy vakolatlar ta'limning “yakuniy natijalari” sifatida qaraladi. Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta'limdan maqsad o'quvchini keng qamrovli fikr-mulohaza yuritadigan va muloqotga kirisha oladigan, ta'lim jarayonida egallagan bilim, ko'nikma va malakalarini o'z shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy faoliyatida qo'llay oladigan barkamol shaxs qilib yetishtirishdir.

Umumta'lim maktablarning boshlang'ich sinflarida ona tili fanidan o'quvchilarda lingvistik kompetensiya hosil qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki, ona tili ta'limi bolalarning tafakkur qilish faoliyatlarini kengaytirish, erkin fikrlay olish, o'zgalar fikrini anglash, o'z fikrlarini og'zaki va yozma ravishda ravon bayon qila olish, jamiyat a'zolari bilan erkin

muloqotda bo'la olish ko'nikma va malakalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu o'rinda ona tili ta'limiga o'quv fani emas, balki, butun ta'lim tizimini uyushtiruvchi ta'lim jarayoni sifatida qaraladi. Ona tili fanidagi **lingvistik kompetentsiya o'quvchilarning** ona tilida o'z fikrini bog'lanishli bayon qila olishi hisoblanadi. Buning uchun ona tilining fonetika, leksika, grammatika bo'limlariga oid bilimlarini o'zlashtirishi va nutq faoliyatining asosiy turlari: tinglab tushunish, gapirish, o'qish, yozish malakalarini egallashi hisoblanadi. Ona tili ta'limining kompetentlik yondashuviga asoslangan Davlat ta'lim standartlari va o'quv dasturlari bolaning fikrlay olishi, ifodalangan fikrni anglashi va o'z fikrini savodli, mantiqiy izchillikda bayon eta olish nuqtayi nazaridan belgilanadi. Boshlang'ich ta'lim bosqichida o'quvchilarning ona tili ta'limi bo'yicha tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan talablar quyidagi uch parametr orqali aks ettiriladi: o'qish texnikasi, o'zgarlar fikrini va matn mazmunini anglash hamda fikrni yozma shaklda bayon etish.

Xulosa qilib aytganda, ona tili fanini o'qitishning bosh maqsadi yoshlarimizning ijodiy-mustaqil, o'z fikrini erkin va ta'sirli, mazmunli va mantiqli qilib yozma va og'zaki shaklda ifodalashga, o'zbek tili qonun - qoidalarini ongli o'zlashtirishga o'rgatish, shuningdek, ularning fikr doiralarini kengaytirishga, ona yurtimizga, avlod-ajdodlarimiz qoldirgan boy ma'naviyatimizga, milliy urf-odatlarimizga mehr-muhabbat ruhida tarbiyalashga qaratilganligi biz uchun faxrlidir. Buning uchun esa har bir o'quvchida lingvistik kompetensiyalarni shakllantirish pedagoglarning oldidagi ulkan maqsad bo'lishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Prezident Shavkat Mirziyoyevning 1-oktabr O'qituvchi va murabbiylar kuniga bag'ishlagan tantanali marosimdagi nutqi. 2021 yil 1 oktabr
2. Qosimova K. Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi. Toshkent "O'qituvchi" 2004.
3. Abdullayeva Kibriyo Ravshanbekovna - O'quvchilarning ijtimoiy faolligini oshirishda zamonaviy o'qituvchining roli. Ilmiy-amaliy konferensiya materiallar to'plami. Namangan-2020
4. Internet ma'lumotlari: www.ziynet.uz